

**O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI**

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI MADANIYAT VAZIRLIGI

O'ZBEKISTON DAVLAT KONSERVATORIYASI

"Tasdiqlayman"
O'zbekiston davlat
konservatoriyasi rektori

K.T.Urinbayev

« 17 » 06 2025-yil

"Kelishildi"
O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lim, fan va
innovatsiyalar vazirligi



2025-yil

"Kelishildi"
O'zbekiston Respublikasi
Madaniyat vazirligi



« 17 » 06 2025-yil

**KASBIY (IJODIY) IMTIHONLAR DASTURI
VA BAHOLASH MEZONI**

**60210100 - Texnologiya san'at (musiqiy ovoz rejissyorligi)
ta'lim yo'nalishi uchun**

Toshkent – 2025 y

Dastur O'zbekiston davlat konservatoriyasining O'quv-uslubiy kengashida ko'rib chiqilgan va maqullangan (20 25 -yil 30 May dagi 10-soni majlis bayoni

Tuzuvchilar:

D.Abdullayev - O'zDK

"Kompozitorlik va cholg'ulashtirish" kafedrası
"Texnogen san'at" (Musiqiy ovoz rejissyorligi) ta'lim yo'nalishi o'qituvchi.

B.Madaminov - O'zDK

"Kompozitorlik va cholg'ulashtirish" kafedrası
"Texnogen san'at" (Musiqiy ovoz rejissyorligi) ta'lim yo'nalishi o'qituvchi.

Taqrizchilar:

Sh.Gafurova - O'zDK

"Kompozitorlik va cholg'ulashtirish" kafedrası
professori, t.f.n.

A.Mirzayev - O'zDK huzuridagi

B.Zokirov nomli MESI o'quv ishlari bo'yicha prorektori dotsent.

Kirish

Bakalavriat ta'lim bosqichiga kiruvchi abituriyentlar uchun tuzilgan mazkur dastur – 60210100 - Texnogen san'at (musiqiy ovoz rejissyorligi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha kasbiy (ijodiy) imtihonlarni olish uchun mo'ljallangan.

60210100 - Texnogen san'at (musiqiy ovoz rejissyorligi) ta'lim yo'nalishi bo'yicha 1-fan kasbiy (ijodiy) ixtisoslikdan imtihon dasturi, 2-fan Musiqa tarixi va nazariyasi fanidan abituriyentlarning amaliy-nazariy ko'nikma va malakalarini aniqlash uchun mo'ljallangan. Ushbu ta'lim yo'nalishi bo'yicha hujjat topshirgan abituriyentlar musiqiy asarlarni tahlil borasida ish bajaradilar. Bajariladigan vazifalar tasdiqlangan mezon asosida baholanadi.

1-fan

“TEXNOGEN SAN'AT (MUSIQIY OVOZ REJISSYORLIGI)

Fanning maqsadi va vazifalari

60210100 - Texnogen san'at (musiqiy ovoz rejissyorligi) ta'lim yo'nalishidagi Musiqiy ovoz rejissyorligi asoslari fani uchun tuzilgan mazkur dasturda qo'yilgan asosiy maqsad – kasbiy (ijodiy) sinovlar orqali musiqiy ovoz rejissyorligi asoslari fani bo'yicha eng ahamiyatli hisoblangan fonogrammalar tahlili hamda musiqiy ovoz rejissyorligi sohasiga bog'liq mavzular bo'yicha amaliy malaka va nazariy bilimlarini aniqlashdan iboratdir.

Musiqiy ovoz rejissyorligi asoslari bo'yicha qabul qilinadigan abituriyentlar o'rta yoki musiqa va san'at maktabi darajasidagi musiqiy ma'lumot asosida musiqa san'atining hamma turlari bo'yicha etuk bilimga ega bo'lishlari, musiqa san'atining sir asrorlarini har jihatdan o'zlashtirgan bo'lishlari, musiqa janrlarini yaxshi bilishlari, klassik va hozirgi zamon musiqa yo'nalishlarini tahlil qila olishlari, eshitilgan (fonogramma) kuylarni – turli chastotalarni ajrata bilish, orkestr, ansamblarning turlarini, undagi sozlarni bilishlari lozim. Musiqiy mavzuni, muvozanatni, cholg'ulashtirilganligini, ijro sofligini, yozilishda yo'l qo'yilgan kamchilik va xatolarni, mono va stereo yozuvlarni ajrata bilishlari lozim.

Shu bilan bir qatorda ovoz rejissyorligi kasbi haqida tushunchasi, ovoz rejissyorligining ish jarayoni va yo'nalishlari, fizika va akustika fanidan tovush haqidagi bilimlari, turli ovoz yozish texnik anjomlari va ularning ovoz yozuvi va uzatuvdagi qo'llanilishi, axborot kommunikasiya texnologiyalari (kompyuter musiqasi texnologiyalari) bo'yicha malakasi, texnika sohasiga qiziqish va intilishi - bilimlari orqali aniqlanadi.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

60210100- Texnogen san'at(musiqiy ovoz rejissyorligi) ta'lim yo'nalishiga hujjat topshirgan abituriyentlar ijodiy imtihonni musiqiy ovoz rejissyorligi asoslari fanidan 2 ta turda topshiradilar. Birinchi turda abituriyentlar fonogrammalarni amaliy tahlil qiladilar. Ikkinchi turda musiqiy ovoz rejissyorligi sohasiga bog'liq bo'lgan mavzular bo'yicha bilet asosida og'zaki imtihon topshiradilar. Bajarilgan fonogramma tahlili va bilet asosidagi og'zaki vazifalar tasdiqlangan me'zon asosida baholanadi.

Abiturientni imtihon qilish quyidagi tartibda o'tkaziladi:

I tur

1. Eshittirilgan ovoz yozuvini tahlili (ijro sofligi, nuqsonlarni aniqlash, orkestr, ansambl turlari, undagi sozlar)
2. Turli chastotalarni eshitish va ajratish qobiliyatini aniqlash;
3. Mono va stereo eshittirish hamda chastotaviy o'zgarishlarni solishtirma tahlil orqali ajrata bilish;

II tur

Ovoz rejissyorligining ish jarayoni va yo'nalishlari, fizika va akustika fanidan tovush haqidagi bilimlari, texnika sohasi bo'yicha qiziqish va intilishlari quyidagi mavzular orqali aniqlanadi (og'zaki tarzda har bir biletda 3-tadan savol bo'ladi):

1. Ovoz rejissyorligi kasbining o'ziga xos xususiyatlari.
2. Ovoz yozuvi turlari, ularning farqlanishi va qo'llanilishi.
3. Tovush to'lqinlarining ob'ektiv ko'rsatgichlari.
4. Tovushning sub'ektiv parametrlari.
5. Ijroning dinamik diapazoni
6. Inson eshitishining o'ziga xos xususiyatlari.
8. Ovoz yutuvchi va qaytaruvchi materiallar haqida tushuncha.
9. Tovushlarni qayta ishlov turlari.
10. Ob'ektiv va subektiv nazorat.
11. Mono va stereo va ko'p kanalli tizimlar haqida tushuncha.
12. Ovoz yozish va uzatishda ishlatiladigan texnik anjomlar va ularning qo'llanilishi.
13. Ovoz rejissyorligi sohasida kompyuter texnologiyalari dasturlaridan foydalanish

Kasbiy (ijodiy) imtihon 1-chi turida abiturient tomonidan bajarilgan fonogramma tahlili qo'yidagi me'zon asosida baholanadi

№	Eshittiriladigan fonogrammalar	To'liq javob uchun ball
1	Damli cholg'ular ansambli tarkibi to'g'ri topilgan	2,0
2	Simfonik orkestr tarkibi to'g'ri topilgan	2,0
3	Xalq cholg'ulari orkestri tarkibi to'g'ri topilgan	2,0
4	Xor jamoasi tarkibi to'g'ri topilgan	2,0
5	An'anaviy ansambl tarkibi va ovoz yozuvi sifati to'g'ri tahlil qilingan	2,0
6	Turli jamoalar ovoz yozuvlari mono yoki stereoligi to'g'ri topilgan	2,0
7	Fonogrammalar sifatlari to'g'ri baholangan	2,0
8	Estrada jamoasi ovoz yozuvi to'g'ri topilgan va tahlil qilingan	2,0
9	Kamer orkestri studiyaviy ovoz yozuvi tahlili to'g'ri bajarilgan	2,0
10	Xalq cholg'ulari kamer orkestri ovoz yozuvi tahlili to'g'ri bajarilgan	2,0

11	Turli shovqin fonida turli chastota signali kuchayganini to'g'ri topgan	15,0
12	Musiqiy kompozitsiyada turli chastota kuchaytirilganligi to'g'ri topgan	15,0
13	Musiqiy kompozitsiya misolida solishtirma tahlil asosida mono va stereo eshitilishini to'g'ri topgan	10,0
14	Musiqiy kompozitsiya misolida solishtirma tahlil asosida turli chastotalar oshirilishi va kesilishini to'g'ri topgan	9,0
Jami tahlil bo'yicha		69,0

2-tur.

3-ta savoldan iborat bo'lgan biletning har bir savoliga to'g'ri javob uchun 8,0 ball, jami esa 24,0 ball beriladi

Ixtisoslik bo'yicha to'plash mumkin bo'lgan maksimal ball –93,0 ball

Kasbiy (ijodiy) imtihonlarni o'tkazish tartibi

60210100-Technogen san'at (musiqiy ovoz rejissyorligi) ta'lim yo'nalishiga xujjat topshirgan abituriyent jadval asosida belgilangan kunlarda "Musiqiy ovoz rejissyorligi asoslari" fanidan fonogramma tahlili hamda og'zaki tarzda kasbiy (ijodiy) imtihonlarni topshiradilar. Qabul komissiyasi tomonidan shakllantirilgan ro'yxat asosida abituriyentlar 1-tur imtihonlarini topshirish uchun navbat bilan 8 nafardan guruhchalarga bo'linib maxsus jihozlangan ovoz yozish studiyasiga o'tkaziladi va har bir guruh uchun fonogramma tahliliga 20 daqiqadan vaqt ajratiladi. Fonogramma tahlilini baholash quyidagi tartibda amalga oshiriladi: birinchi bo'lim 10-ta trekdan iborat bo'lib eshittirilgan har bir fonogramma to'liq va batafsil tahlil qilingani uchun 2,0 ball, tahlil 50 % gacha bajarilgan bo'lsa 1 ball, Ikkinchi bo'lim 6ta trekdan iborat fonogramma tahlilida abituriyentlar turli shovqin va musiqiy kompozitsiyalar fonida turli chastotalarning kuchayishini aniqlashlari lozim bo'ladi. Tahlil to'liq qilingan bo'lsa har bir trekning to'liq tahlili uchun 15 ball; tahlil 50 % gacha bajarilgan bo'lsa har bir trek uchun 7,5 ball; Uchinchi bo'lim 4-ta juft treklardan iborat bo'lib eshittirilgan juft treklarning to'liq solishtirma tahlili uchun 10-ball; 50 %gacha solishtirma tahlil uchun 5 ball;

2-turda abituriyentlarning musiqiy ovoz rejissyorligi sohasiga bog'liq bo'lgan bilimlari bilet savollariga javob berishlari bilan baholanadi. Har bir biletda 3-tadan savol bo'lib ular 6 balli tizimda baholanadi. Har bir savolga to'liq javob berilsa 8 ball; 50 % foizgacha javob berilsa 4,0 ball;

2-fan

MUSIQA TARIXI VA NAZARIYASI

“Musika tarixi va nazariyasi” fanidan sinovlar 3 bosqichda o‘tkaziladi:

1-bosqichda abituriyent “Musika adabiyoti” fani bo‘yicha og‘zaki savollarga javob berishi lozim.

2-bosqichda abituriyent “Musika nazariyasi” fani bo‘yicha amaliy topshiriqlarni bajarishi lozim

3-bosqichda abituriyent “Solfedjio” fani bo‘yicha amaliy topshiriqlarni bajarishi lozim

1-bosqich “Musika adabiyoti” fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi - abituriyentlarning “Musika adabiyoti” fanidan nazariy bilim doirasi, amaliy ko‘nikmalarining shakllanganligi qay darajada ekanligini aniqlashdan iborat. Ma’lumki, musiqiy asarlarni ijro etilishida ularning yaratilish davri, yo‘nalishi, janri va shakli tamoillari yuzasidan bilim ko‘nikmalariga ega bo‘lish talab etiladi. Shunga ko‘ra abituriyentlar oldiga quyidagi vazifalar qo‘yiladi:

- musiqiy asarlarni yaratilish davri, yo‘nalishi, janri va shakl tamoillari bilish;
- mumtoz musiqaning yetuk namunalari xususida birlamchi bilimga ega bo‘lish.

Abituriyent bilimiga qo‘yiladigan talablar

Abituriyent “Musika adabiyoti” fanidan o‘quv dasturi doirasida to‘laqonli bilimga ega bo‘lganligini og‘zaki yoki yozma xolda namoish etishi, o‘z javobini musiqiy namunalarni fortepiano sozida chalib ko‘rsatish yoki kuylab berish orqali tasdiqlashi talab etiladi. Sinov jarayonida abituriyentning-eruditsiya, madaniy xodisalarni anglash, musika san‘atining tarixiy jarayonlardagi ahamiyatini tushunish kabi xususiyatlari yorqin namoyon bo‘lishi kerak.

“Musika adabiyoti” fanidan og‘zaki topshiriqlar:

a) ijro dasturiga oid savollar: (asarning shakl jihatidan tahlili, muallifi, yaratilgan davri va ijro yo‘nalishi, ijroning badiiy xususiyatlari v.h);

b) o‘rta maxsus ta’limning umumiy kursi darajasida musika adabiyotidan bilimlarni;

v) janr va shakl nuqtai nazaridan kichik hajmdagi - sonatina, romans, kuy va b. asarlarni tahlil qilish qobiliyati kabilarni o‘z ichiga oladi;

Shuningdek, «Musika adabiyoti»da abituriyentning musika san‘ati va boshqa san‘at turlaridan, o‘zbek va chet el musiqasida ma’lum va mashhur asarlar, zamonaviy an‘analar haqidagi bilim darajasi qanday ekanligi bilib olinadi.

1-bosqich bo‘yicha baholash

№	Savollar mazmuni	To‘liq javob uchun ball
1	Asarga oid savollar	3,0
2	Chet el musika adabiyoti bo‘yicha savollar	6,0
3	O‘zbek musika adabiyoti bo‘yicha savollar	6,0
4	Asarning janr va shakl nuqtai nazaridan tahlili	6,0

1-bosqich "Musika adabiyoti" bo'yicha baholash uchun qo'yiladigan maksimal ball – 21,0 ball

2-bosqich «Musika nazariyasi» fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi - abituriyentlarning "Musika nazariyasi" fanidan nazariy bilim doirasini, amaliy ko'nikmalarining qay darajada shakllanganligini aniqlash, musiqiy-nazariy qonuniyatlarni bila olish. Musika nazariyasi musika ijrochilarining maxsus nazariy bilim darajasini belgilaydi. Professional ijro ko'nikmalari, tabiiy iste'dod, badiiy didning rivojlantirish bilan bir qatorda musiqiy-nazariy xususiyatlarni idrok etish, nazariy tahlil paytida anglash qobiliyatlarini namoyon etishga xizmat qiladi. Shuningdek, musika muallifining asarida bayon etilgan badiiy g'oyasining musiqiy-nazariy jihatlarini o'zlashtirishga yordam beradi.

Abituriyentlar oldiga quyidagi vazifalar qo'yiladi:

- Musiqiy-nazariy qonuniyatlarini bilish;
- nazariy bilimlarni amaliyotda qo'llash;
- nazariy tushunchalar asosida garmonik tuzilmalar va intervallar tuzish;
- muayyan misollar asosida musiqiy topshiriqlarni nazariy jihatdan aniqlash;
- musiqiy-nazariy tilning barcha tarkibiy qismlarini bilish va amaliyotda qo'llash;

musika asarining badiiy g'oyasi va mazmunidan kelib chiqqan holda musiqiy-nazariy tushunchalar orqali ifodalash.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

Abituriyent "Musika nazariyasi" fanidan o'quv dasturi doirasida to'laqonli bilimga ega bo'lgan holda og'zaki mashqlarni xatosiz bajarganda, garmonik qonuniyatlarni yechimini fortepianoda erkin namoyon etganda, taxlil jarayonida garmonik nazariy va amaliy ko'nikmalarini namoyish qilganda, shuningdek, fan bo'yicha bilimlari yuqori badiiy darajada bo'lganida qo'yiladi. Talabaning garmonik eshitish qobiliyati, garmonik tuzilmalarni fortepianoda ijro etish mahoragi yorqin namoyon bo'lishi kerak.

Musika nazariyasi fanidan abituriyent tomonidan bajariladigan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

OG'ZAKI TOPSHIRIQLAR

1. Berilgan tovushdan 3 xildagi major va minor, xalq musiqasidagi lادلarni tuzish, diatonik va xromatik intervallarni tuzish, ularni tonalligini aniqlash va yechish.

2. Berilgan akkordlarni aniqlash va ularning kerakli tonallikda yechish, berilgan tonallikda akkordlarning ketma-ketligini tuzish.

2-bosqich bo'yicha baholash

N₂	Sayollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	Berilgan tovushdan 3 xildagi major va minor, xalq musiqasidagi lادلarni tuzish, diatonik va xromatik intervallarni tuzish, ularni tonalligini aniqlash va yechish	11,0
2.	Berilgan akkordlarni aniqlash va ularning kerakli	10,0

	tonallikda yechish, berilgan tonallikda akkordlarning ketma-ketligini tuzish.	
Jami		21,0

2-bosqich "Musika nazariyasi" fani uchun qo'yiladigan maksimal ball – 21,0 ball.

3-bosqich "Solfedjio" fanidan sinovlar dasturining asosiy maqsadi – barcha ixtisosliklar uchun musiqiy eshitishni rivojlantirish va kasbiy tayyorlanishda eng muhim predmetlardan hisoblanadi. Musiqiy eshitish darajasining yuqoriligi, kuylash malakasi va musiqiy xotirani kuchlilik xonanda va dirijyorlarni tarbiyalashda katta ahamiyatga egadir.

Fanni o'zlashtirishdan kelib chiqadigan vazifalar - abituriyentlar turli yo'nalishlarda bilimlarga ega bo'lganliklarini namoyish etishlaridan iboratdir. Solfedjio fani bo'yicha talabalar o'rganilayotgan materialning qaysi millatga taalluqli bo'lishidan qat'iy nazar musiqiy eshitish, xotirani har tomonlama rivojlantirish, kuylash va tinglash jarayonida tovush tozaligini nazorat qilish kabi tasavvur, tushuncha va bilimlarga ega bo'lishi lozim.

Abituriyent bilimiga qo'yiladigan talablar

Abituriyent "Solfedjio" fanidan o'quv dasturi doirasida to'laqonli bilimga ega bo'lgan holda, notaga qarab kuylashni bajarganda, musiqiy-nazariy va amaliy ko'nikmalarini namoyish qilganda, shuningdek, fan bo'yicha bilimlari yuqori darajada bo'lganida qo'yiladi. Talabaning solfedjio fanidan qobiliyatini yorqin namoyon bo'lishi kerak.

Solfedjio fanidan abituriyent tomonidan bajarilgan amaliy ish quyidagi mezon asosida baholanadi:

OG'ZAKI:

1. Notanish bir ovozli misollarni dirijyorlik qilib kuylash
2. Intervallar va akkordlarni eshitib aniqlash.

3-bosqich boyicha baholash

№	Savollar mazmuni	To'liq javob uchun ball
1.	Notanish bir ovozli misollarni dirijyorlik qilib kuylash:	
a)	Tonallikni to'g'ri aniqlash	2 ballgacha;
b)	Sof kuylash	7 ballgacha;
c)	Ritmik ketma-ketlikka aniq rioya qilish	6 ballgacha.
2.	Intervallar va akkordlarni eshitib aniqlash.	6 ballgacha.
Jami		21,0

3-bosqich "Solfedjio" fani uchun qo'yiladigan maksimal ball – 21,0 ball.

“Musika tarixi va nazariyasi” fani uchun qo‘yiladigan maksimal ball – 63,0 ball

Mazkur ta’lim yo‘nalishida kasbiy (ijodiy) imtihonlarga jami qo‘yiladigan maksimal ball – 156,0 ball.

Ijodiy imtihonni o‘tkazish tartibi

“60210100-Technogen san’at (musiqiy ovoz rejissyorligi)” ta’lim yo‘nalishiga hujjat topshirgan abituriyent jadval asosida oldindan belgilangan muddatlarda Toshkent shahridagi O‘zbekiston davlat konservatoriyasi binosida ijodiy imtihon topshiradi. Imtihonlar yakka tartibda Qabul komissiyasi tomonidan belgilangan auditoriyalarda o‘tkaziladi.

Ijodiy ishni qabul qiladigan komissiya abituriyentdan ijro dasturi bo‘yicha imtihonni qabul qilib oladi.

Appelyatsiya tartibi

Abituriyentlar tomonidan kasbiy (ijodiy) imtixon natijalari bo‘yicha konservatoriya qabul komissiyasining apellyatsiyalar bilan ishlash hay’atiga natijalar e’lon qilingandan kundan (vaqtdan) boshlab 24 soat davomida murojaat qilishlari mumkin. Murojaat mazmunida faqat abituriyent o‘zi to‘plagan ballari haqida bo‘lsa qabul qilinadi, lekin boshqa abituriyentlar haqida yozilgan shikoyat arizalari qabul qilinmaydi.

Ўзбекистон давлат консерваторияси
“Композиторлик ва чолгулаштириш” кафедраси, “60210100 – Техноген санъат” (Муסיкий овоз режисёрлиги) таълим йўналиши бўйича ижодий имтиҳон дастурига

ТАҚРИЗ

“60210100 –Техноген санъат” (Муסיкий овоз режисёрлиги) таълим йўналиши бўйича ижодий имтиҳон дастури, абитуриентларнинг Техноген санъат” (Муסיкий овоз режисёрлиги) таълим йўналишига кириш имтиҳонлари талаблари асосида тайёрланган.

Дастурда абитуриентларнинг ушбу соҳани эгаллаш учун муסיкий овоз режисёрлигининг турли йўналишларида билимларини намоёиш этишлари, шунингдек муסיқа тарихи ва назарияси ҳамда солфеджио фанларидан муסיкий овоз режисёрлари билишлари лозим бўлган жиҳатлар инобатга олинган. Абитуриентларга куйидаги йўналишлар бўйича синовларни топшириш белгиланган:

1. Фонграмма амалий таҳлили.
2. Билет асосида оғзаки имтиҳон. (Коллеквиум)
3. Муסיқа тарихи ва назарияси.
4. Сольфеджио

Юқорида кўрсатилган талаблардан келиб чиққан ҳолда абитуриентлар баҳоланади. Ҳар бир бўлимнинг баҳоланиш баллари мавжуд. Барча жараёнлардан ўтгандан кейин якуний баҳо қўйилади.

Мазкур дастур Техноген санъат” (Муסיкий овоз режисёрлиги) таълим йўналишига оид бўлиб, абитуриентнинг кириш имтиҳонлари ҳақидаги умумий тушунча ва тасавурларини кенгайтиришга хизмат қилади.

“ЎзДК ҳузуридаги Б.Зокиров номидаги
МЭСИ ўқув ишлари
бўйича проректори, доцент



А.Мирзаев

Ўзбекистон давлат консерваторияси
“Композиторлик ва чолгулаштириш” кафедраси, “60210100 – Техноген санъат”(Муסיкий овоз режисёрлиги) таълим йўналиши бўйича ижодий имтиҳон дастурига

ТАҚРИЗ

“60210100 –Техноген санъат” (Муסיкий овоз режисёрлиги) таълим йўналиши бўйича ижодий имтиҳон дастури, абитуриентларнинг Техноген санъат” (Муסיкий овоз режисёрлиги) таълим йўналишига кириш имтиҳонлари талаблари асосида тайёрланган.

Дастурда абитуриентларнинг ушбу соҳани эгаллаш учун муסיкий овоз режисёрлигининг турли йўналишларида билимларини намойиш этишлари, шунингдек мустика тарихи ва назарияси ҳамда сольфеджио фанларидан муסיкий овоз режисёрлари билишлари лозим бўлган жиҳатлар инобатга олинган. Абитуриентларга қуйидаги йўналишлар бўйича синовларни топшириш белгиланган:

1. Фонграмма амалий таҳлили.
2. Билет асосида оғзаки имтиҳон. (Коллеквиум)
3. Мустика тарихи ва назарияси.
4. Сольфеджио

Юқорида кўрсатилган талаблардан келиб чиққан ҳолда абитуриентлар баҳоланади. Ҳар бир бўлимнинг баҳоланиш баллари мавжуд. Барча жараёнлардан ўтгандан кейин якуний баҳо қўйилади.

Мазкур дастур Техноген санъат” (Муסיкий овоз режисёрлиги) таълим йўналишига оид бўлиб, абитуриентнинг кириш имтиҳонлари ҳақидаги умумий тушунича ва тасавурларини кенгайтиришга хизмат қилади.

Ўзбекистон Давлат Консерваторияси
“Композиторлик ва чолгулаштириш кафедраси”
профессори, т.ф.и.



Ш.Гафурова

O'zbekiston davlat konservatoriyasi 60211300-Dirijyorlik; 60211301-Dirijyorlik: Akademik xor dirijyorligi, 60210100-Texnogen san'at (musiqiy ovoz rejissyorligi), 60211401-Vokal san'ati: akademik xonandalik, 60211501-Cholg'u ijrochiligi: fortepiano (organ), 60210900-Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishlari uchun Ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturiga

TAQRIZ

Taqdim etilayotgan 60211300-Dirijyorlik; 60211301-Dirijyorlik: Akademik xor dirijyorligi, 60210100-Texnogen san'at (musiqiy ovoz rejissyorligi), 60211401-Vokal san'ati: akademik xonandalik, 60211501-Cholg'u ijrochiligi: fortepiano (organ), 60210900-Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishlari uchun ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturlari "Musika tarixi va nazariyasi" fanidan iborat bo'lib, o'z navbatida uch bosqichda amalga oshiriladi. Abiturientlar avval "Musika adabiyoti" fanidan nazariy bilimlariga, musika ilmidagi fikrlashlariga e'tibor beriladi. Ikkinchi bosqichda "Garmoniya" fanidan egallangan nazariy bilimlarni amaliy ijro etilishi orqali ochib berilishini nazarda tutadi. Uchinchi bosqichda "Solfedjio" fanida kuy misollarini sof intonatsiyalash muhim bo'lib, nazariy bilimlarni amaliyotdagi aksini namoyish etishdan iborat.

Musika ilmining barcha ta'lim yo'nalishlarida tahsil olishni istayotgan abiturientlar uchun jahon xalqlari musika adabiyoti, o'zbek musika adabiyoti, xususan bastakorlik va kompozitorlik ijodiyoti hamda musiqashunoslikka oid maxsus adabiyotlar bilan tanish ekanligi muhimdir.

Musiqiy-nazariy fanlar bo'yicha garmonik ketma-ketlikdagi garmonik izchilliklarni ijrosi orqali amaliy hamda nazariy bilimlarini ko'rsata olishi, xususan notadan kuylay olishi, xalq ladlari, major-minor turlari, interval va akkordlarni kuylay olishi va tinglab aniqlashi zarur bo'ladi.

Mazkur o'quv dastur mantiqan izchil va to'g'ri tuzilgan. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda mazkur dasturni ta'lim tizimiga joriy etish mumkin deb hisoblayman.

O'zDK "Musika nazariyasi" kafedrası
katta o'qituvchisi



S.Maxmudova

O'zbekiston davlat konservatoriyasi 60211300-Dirijyorlik; 60211301-Dirijyorlik: Akademik xor dirijyorligi, 60210100-Texnogen san'at (musiqiy ovoz rejissyorligi), 60211401-Vokal san'ati: akademik xonandalik, 60211501-Cholg'u ijrochiligi: fortepiano (organ), 60210900-Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishlari uchun Ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturiga

TAQRIZ

Mazkur 60211300-Dirijyorlik; 60211301-Dirijyorlik: Akademik xor dirijyorligi, 60210100-Texnogen san'at (musiqiy ovoz rejissyorligi), 60211401-Vokal san'ati: akademik xonandalik, 60211501-Cholg'u ijrochiligi: fortepiano (organ), 60210900-Bastakorlik san'ati ta'lim yo'nalishlari uchun taqdim etilayotgan ijodiy (kasbiy) imtihonlar dasturi "Musika tarixi va nazariyasi" fanidan iborat bo'lib, o'z navbatida uch bosqichda amalga oshiriladi. Abiturientlar avval "Musika adabiyoti" fanidan nazariy bilimlari, musiqa ilmidagi fikrlashlariga e'tibor beriladi. Ikkinchi bosqichda "Garmoniya" fanidan egallangan nazariy bilimlarni amaliy jihatdan ochib berib, uchinchi bosqichda "Solfedjio" fanida nota yozuvida savodli o'qish mashqlari baholanadi.

Musiqa ilmining barcha ta'lim yo'nalishlarida tahsil olishni istayotgan abiturientlar uchun jahon xalqlari musiqa adabiyoti, o'zbek musiqa adabiyoti, xususan bastakorlik va kompozitorlik ijodiyoti hamda maxsus adabiyotlar bilan tanish ekanligi muhimdir.

Musiqiy nazariy fanlar bo'yicha garmonik ketma-ketlikdagi garmonik izchilliklarni ijrosi orqali amaliy hamda nazariy bilimlarini ko'rsata olishi, shuningdek notaga qarab kuylay olishi, lad, interval va akkordlarni kuylab, so'ngra tinglab aniqlay olishi zarur bo'ladi.

Mazkur o'quv dastur mantiqan izchil va to'g'ri tuzilgan. Yuqoridagi fikrlarni inobatga olgan holda mazkur dasturni ta'lim tizimiga joriy etish mumkin deb hisoblayman.

O'zDK huzuridagi Botir Zokirov
nomidagi MESI "Musiqiy nazariy va
tarixiy fanlar" kafedrası mudiri, i. s. f. d. (PhD)

N.T.Xamdamova